

## **ISTE'DOD JAMG'ARMASI IMKONIYATLAR DEBOCHASI**

Qodirova Mamlakt, Mo'minovna

Qarshi davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasi tarix fanlari nomzodi, dotsent

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada yurtimizda yoshlarga yaratilgan imkoniyatlar, „Iste'dod“ jamg'armasining tashkil etilishi, vazifalari xususida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagog, texnologiyalar, jamg'arma, ta'lim, ilm-fan, tadqiqot, kadr,qobiliyat.

Bugungi kunda yuksak salohiyatli yoshlarni tarbiyalash, ularni jahon xalqaro talablar darajasida o'qitish, mamlakatimiz rivoji uchun yetuk kadr sifatida tayyorlash bugunning dolzarb masalalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning malakasini oshirish „Iste'dod“ jamg'armasi 2003-yilning 1-iyulida O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning Farmoniga muvofiq tashkil etilgan. Jamg'armaning vazifalari etib mamlakatimizning intellektual salohiyatini, fan, pedagogika va iqtisodiyotimiz rivojlanishi darajasini jahoning eng ilg'or ilmiy izlanishlari va yuqori texnologiya yutuqlari darajasiga ko'tarish, O'zbekistonda chuqur tarixiy ildizlarga ega va respublikamiz taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan ilm-fan yo`nalishlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda faol ishtirok etish, dunyoda e`tirof etilgan nufuzli oliy ta'lim va ilmiy markazlar bilan amaliy hamkorlik o'rnatish, o'zaro manfaatli ilmiy tadqiqotlar va izlanishlarni tashkil etish orqali istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrler iste'dodining ochilishi va yuksalishiga ko'mak berish, mamlakat ta'lim va ilmiy muassasalarida pedagogik va ilmiy faoliyat borasida muayyan yutuqlarga erishgan, ilmiy izlanishlarni boshlagan, yuksak ijodiy salohiyat va qobiliyat sohiblari bo'lgan istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning iste'dodini rivojlantirish, ularning Jamg'arma grantlari asosida taraqqiy topgan davatlarning ilg'or ta'lim va ilmiy muassasalarida nazariya va amaliyotining zamonaviy yo`nalishlari bo'yicha malaka oshirish hamda maqsadli tajriba orttirishiga, O'zbekistonning barqaror rivojlanishi uchun ustuvor yo`nalishlar bo'yicha bilimini chquqlashtirishiga, progressiv ilmiy izlanishlarda ishtirok etishiga ko'maklashish belgilandi.

Shuningdek ushbu jamg'arma adabiyot, san'at va me'morchilik sohalarida iste'dodli yoshlarni izlab topish, ularning ijod salohiyatini Vatanimiz mustaqilligi va xalqimiz ma'naviyatini mustahkamlash, boyitishga yo'naltirish, ularga g'amxo'rlik ko'rsatishni zamon talablari darajasiga ko'tarish vazifasini ham bajaradi.Jumladan:

— mavjud ta'lim-tarbiya tizimlarida maxsus o'quv dasturlarini muvofiqlashtirishda ishtirok etish;

- joylarda iqtidorli yoshlarni turli maqbul shakllarda sinov, tanlov-ko'riklar vositalarida aniqlashga alohida e'tibor qaratish;
- xalq ijodiyoti va amaliy san'at turlarini rivojlantirishda faol qatnashish;
- iqtidorli yoshlarni rag'batlantirish va kamol topishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga ko'maklashish;
- yosh ijodkorlar asarlari nashri, namoyishi va keng targ'ib etishda homiylik qilish kabilar belgilangan.

O'zbekiston iqtisodiyotining barcha soha va tarmoqlarini xalqaro mehnat bozorida yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislar, pedagoglar va ilmiy kadrlar bilan o'z vaqtida ta'minlash, ularni magistratura va PhD dasturlari bo'yicha tayyorlash, talabgorlarni malaka oshirish va stajirovka o'tash, yetakchi xorijiy ta'lif muassasalarida ta'lif olish uchun tanlab olishni takomillashtirish, ularning mehnat va ilmiy-pedagogik faoliyati monitoringini olib borish, shuningdek, yuqori malakali xorijiy olimlar, o'qituvchilar va mutaxassislarni oliy ta'lif muassasalari, qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlarining o'quv jarayoniga keng jalg qilish maqsadida bugungi kun talablaridan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning malakasini oshirish "Iste'dod" jamg'armasi faoliyat yo'nalishlarini, maqsad va vazifalarini qayta ko'rib chiqish dolzarb masalaga aylandi.

Qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning malakasini oshirish "Iste'dod" jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq Jamg'armaning nomi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining chet elda stipendiatlarning malaka oshirishi, stajirovka o'tashi va ta'lif olishini tashkil etish "Iste'dod" jamg'armasi" deb o'zgartirildi.

Jamg'armaga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan tasdiqlangan Vasiylik kengashi rahbarlik qiladi. Jamg'arma o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tasdiqlangan Nizom asosida amalga oshiradi. Pedagog va ilmiy kadrlarning chet elning nufuzli ta'lif va ilmiy muassasalarida malaka oshirishlari va stajirovka o'tashlari, oliy ta'lif muassasalari bitiruvchilarining magistratura va PhD dasturlari bo'yicha o'qishlari 2017/2018 o'quv yilidan boshlab maqsadli dastur asosida amalga oshiriladi.

Jamg'arma faoliyati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Ta'lif va tibbiyot muassasalari moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larining 10 foizdan kam bo'lmagan miqdoridagi yillik ajratmasi, Vasiylik kengashi tomonidan tasdiqlangan miqdorda Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi bilan kelishilgan holda respublika oliy ta'lif muassasalarining byudjyetdan tashqari (to'lov-kontrakt) mablag'laridan ajratmalar, shartnomalar asosida xo'jalik faoliyati yuritish va xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan mablag'lar, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik hamda beg'araz yordamlari, xalqaro

moliya tashkilotlari grantlari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalardan olingan mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi.

Xorijda malaka oshirish, stajirovka o'tash hamda magistratura va PhD dasturlari bo'yicha ta'lif olishga yuborish tanlov asosida amalga oshiriladi. Tanlovnin o'tkazish Jamg'arma tomonidan tashkil etiladigan qabul komissiyasi zimmasiga yuklanadi. Komissiya tanlov natijalarini umumlashtiradi va ularni Jamg'armaning Vasiylik kengashi tasdig'iga taqdim etadi.

Jamg'arma stipendiyalari Vasiylik kengashi tomonidan har yili tasdiqlanadigan maqsadli dasturlar asosida ajratilib, chet elda ta'lif olish uchun to'lanadigan mablag', chet el vizasini olish uchun to'lov, yo'l xarajatlari (bir yilda xorijga borish va kelish uchun bir martalik aviachipta, temir yo'l chiptalari va boshqalar), turar joy va ovqatlanish haqi, darslik va o'quv qo'llanmalar sotib olish uchun hamda bevosita ta'lif bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlarni qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni mamlakatning barqaror rivojlanish yo'lidan borayotgan barcha iqtisodiyot tarmoqlarini yanada yuksaltirish, davlat va jamiyat hayotini modernizatsiya qilish va erkinlashtirish jarayonlarini tezlashtirish, bozor iqtisodiyoti tamoyillarini hayotga keng joriy etishga xizmat qiladigan, zamonaviy fan-texnika yutuqlari, innovatsion texnologiyalarni puxta o'zlashtirgan istiqbolli mutaxassislarini tarbiyalash, pedagog kadrlar va iqtidorli yoshlarning ilmiy-pedagogik va intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadijihozlashga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Ta'lif va tibbiyot muassasalarini moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi resurslarining 10 foizdan kam bo'limgan miqdoridagi mablag'lari hisobidan, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik yordamlari, xalqaro moliya instituti va xorijiy tashkilotlarining grantlari;

xodimlar ish haqi uchun to'lovlarni o'z ichiga olgan Jamg'armaning joriy faoliyati va unga yuklatilgan boshqa vazifalarini bajarish bilan bog'liq xarajatlar – Jamg'arma Vasiylik kengashi tomonidan tasdiqlangan miqdorda Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi bilan kelishilgan holda respublika oliy ta'lif muassasalarining byudjyetdan tashqari (to'lov-kontrakt) mablag'laridan ajratmalar, shuningdek, xo'jalik faoliyati va shartnomalar asosida ko'rsatilgan xizmatlardan kelgan tushumlar, jismoniy va yuridik shaxslarning beg'araz yordamlari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Jamg'arma 2022 yil 1 yanvargacha davlat maqsadli jamg'armalariga soliq to'lovlari va majburiy yig'imlardan ozod qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi Jamg'armaga xorijiy ta'lif va ilmiy muassasalar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish, stipendiatlarga xorijiy mamlakatlarning vizalarini olish, konsullik ro'yxatiga kiritish, notarial va boshqa xizmatlarni ko'rsatish, ularning yuborilgan mamlakatda malaka oshirishlari va stajirovka o'tashlari bo'yicha ta'lif monitoringini amalga oshirishga har tomonlama ko'maklashadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi: chet elda malaka oshirish, stajirovka o‘tash va ta’lim olishga yuboriladigan nomzodlarni tanlab olishni tashkil qilishda Jamg‘armaga har tomonlama uslubiy yordam ko‘rsatilishini; Jamg‘arma tomonidan chet elda ta’lim olgan shaxslarning ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlari nostrifikatsiyasini (ekvivalentligini qayd etish) to‘g‘ridan-to‘g‘ri (maxsus sinovlar o‘tkazmasdan) amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Shu kunga qadar “Iste’dod ” jamg‘armasi dunyoning nufuzli oily o’quv yurtlari, jumladan Garvard Universiteti, Kembridj Universiteti, Vestminster Universiteti, Bonn Universiteti, Malaga Universiteti, LogMan Akademiyasi, Moskva Davlat Universiteti, Tokyo Universiteti va shu kabi boshqa o’quv dargohlari bilan hamkorlik aloqalarini o’rnatgan.

Xulosa qilib aytganda, jamg‘arma faoliyatini rivojlantirish mamlakatning barqaror rivojlanish yo‘lidan borayotgan barcha iqtisodiyot tarmoqlarini yanada yuksaltirish, davlat va jamiyat hayotini modernizatsiya qilish va erkinlashtirish jarayonlarini tezlashtirish, bozor iqtisodiyoti tamoyillarini hayotga keng joriy etishga xizmat qiladigan, zamonaviy fan-texnika yutuqlari, innovatsion texnologiyalarni puxta o‘zlashtirgan istiqbolli mutaxassislarini tarbiyalash, pedagog kadrlar va iqtidorli yoshlarning ilmiy-pedagogik va intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati :**

1. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. KARIMOV ning PF-601-sun Farmoni. Toshkent sh., 1993-yil 4-may
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda uning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni. 2018-yilning 5-aprel
3. Муртазаева Р.Х. Ба босхалар. О‘zbekiston tarixi. О‘quv qo’llanma. . –T.: Akademiya 2010.
4. Oblomurodov N., Va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. O‘quv qo’llanma. –T.: Yangi asr avlod, 2011.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo’shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3775-soni qarori.
6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.